Ko'mir briketlarini ishlab chiqarishda yangi bog'lovchi

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti “Kimyoviy texnologiya va sirt faol moddalar” laboratoriyasi olimlari tomonidan ko’mir briketlarini ishlab chiqarishda qo’llaniladigan mahalliy xom-ashyo chiqindilari asosida import o’rnini bosadigan bog’lovchi yaratildi.





Ko’mir briketlarini ishlab chiqarish uchun mahalliy xom-ashyo chiqindilari asosida yangi import o’rnini bosadigan bog’lovchi mustahkamlikni ta’minlaydi, issiqlik va yonish vaqtini oshiradi.

Yangi ishlanma ishlab chiqarish chiqindilardan foydalanish va energiyani tejash imkonini beradi, mahsulot tashish, saqlash, ishlatish uchun zarur bo’lgan xususiyatlarga ega.

Sanoat sinovlari “Angren ko’mir invest”,”Angren ko’mir ta`minot”, “Namangan ko’mir yetkazuvchi”, “Xorazm ko’mir yetkazuvchi” korxonalarida o’tkazilib ijobiy natijalar olindi.